

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

70910209 - «NEVROLOGIYA» mutaxassisligi (Nevrologiya shifokori)

MALAKA TAVSIFNOMASI

Toshkent – 2021

ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Tibbiyot oliy tahlim muassasalari

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Tibbiyot va farmatsevtika uzluksiz kasbiy tahlim muassasalararo Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishida mahqullangan.

2021 yil «16» avgust dagi 4 - sonli bayonnoma.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2021 yil «31» avgust dagi 217 -sonli buyrug'ining 3 ilovasi bilan tasdiqlangan

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

MUNDARIJA

1. Umumiy talablar	5
1.1. Ushbu malakaviy tavsifnoma davlat normativ hujjati hisoblanadi va quyidagi hujjatlar asosida ishlab chiqilgan.....	5
1.2. Ushbu malakaviy tavsifnoma davlat normativ hujjati hisolanadi va quyidagilarni belgilaydi.....	6
1.3. Ushbu malakaviy tavsifnoma quyidagilar uchun mo'ljallangan.....	6
1.4. Ushbu nevrologiya shifokori malakaviy tavsifnomasi quyidagi hollarda qo'llaniladi.....	6
1.5. Nevrologiya shifokori professional tasdiqlanishi va faoliyat shartlari.....	7
2. Nevrologiya shifokoriga bo'lgan malaka talablar.....	7
2.1. Nevrologiya shifokori bilimlari:.....	7
3. Nevrologiya shifokori tomonidan olib boriladigan aholi sog'liqni saqlash va diagnostika ishlari.....	7
4. Nevralogiya shifokori saviyasidagi tibbiy yordam hajmi.....	9
5. Nevralogiya shifokori o'zlashtirishi zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalar va kompetentsiyalar.....	9
5.1. Nevrologiya shifokori tomonidan ko'rsatiladigan malakali tibbiy yordam quyidagi toifadagi xizmatlarni o'z ichiga qamrab oladi:.....	14
6. Nevrologiya shifokorlarining uzluksiz kasbiy tayyorgarligi va attestatsiyadan o'tkazish.....	16



1. UMUMIY TALABLAR

O'zbekiston Respublikasining zamonaviy sog'liqni saqlash tizimining muhim omillaridan aholining keng qatlamlariga nevrologiya xizmati yetib borishi va yuqori saviyada olib borilishi hisoblanadi. Shu maqsadda qishloq vrachlik punktlarida, qishloq oilaviy poliklinikalarida, oilaviy poliklinikalarda, ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarda, kasalxonalarda, tibbiy markazlar, sanatoriyalarda tashkil etilgan laboratoriyalar ko'plab nevrologiya muammolarni yechish imkonini yaratadi. Bugungi kunda ayniqsa qishloq va chetki tumanlar sharoitida nevrologiya shifokori tomonidan ko'rsatiladigan diagnostik va profilaktik yordam sifatini yaxshilash talab etiladi.

Ushbu nevrologiya shifokori malakaviy tavsifnomasi zamonaviy talablarga javob beradigan mutaxassislar tayyorlanishida asosiy hujjat hisoblanadi.

Nevrologiya shifokori tavsifnomasi kadrlar tayyorlashga unifikatsiyalangan va tizimli yondashuv yaratib beradi.

1.1. Ushbu malaka tavsifnomasi davlat me'yoriy hujjati bo'lib, quyidagilar asosida tuzilgan:

Malaka tavsifi Nevrologiya tayyorgarligi va faoliyatiga birlashtirilgan, tizimlashtirilgan talablarni tahminlaydi.

Bu malaka tavsifi Davlat me'yoriy hujjati quyidagilar asosida ishlab chiqilgan:

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.05.2017 yildagi 'Q-2956-sonli "Tibbiy tahlil tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 martdagi "Shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 'Q-4985-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy mahlumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 27 iyuldagi 'Q-3151-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 13 sentyabrdagi 718-sonli "Tibbiy xizmatlarning sifatini yaxshilash, tibbiy kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish uchun birlamchi tibbiy-sanitariya yordamida ko'rilayotgan profilaktika choralarining samaradorligi uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida"gi qarori.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi ‘Q-5590-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 martdagi "O‘zbekiston Respublikasining birlamchi sog‘liqni saqlash muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi ‘Q-2857-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tibbiy va farmatsevtik tahlil va fan tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 2019 yil 6 maydagi ‘Q-4310-sonli Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 sentyabrda "Tibbiy kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi 769-sonli qarori.

2018 yil 5 iyundagi “Oliy tahlil muassasalarida tahlil sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini tahminlash buyicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi ‘Q-3775-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 25 iyuldagi “Koronavirus pandemiyasini yumshatish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va salomatligini saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi ‘F-6035-sonli farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 dekabrda “Yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari. to‘g‘risidagi” ‘Q-4063 – sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 a‘relda “Q-4666-sonli “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori;

O‘zbekiston ResPublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrda “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoloyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi ‘F-6110-sonli Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus tahlil vazirligining 2021 yil 16 iyuldagi “Oliy tahlilning Davlat tahlil standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 311-sonli buyrug‘i.



1.2. Ushbu malakaviy tavsifnoma davlat normativ hujjati hisoblanadi va quyidagilarni belgilaydi:

- mutaxassis-shifokori faoliyatining asosiy talablari va faoliyat yuritish shartlari,;
- nevrologiya shifokoriga bo'lgan malaka talablarini;
- nevrologiya shifokorining attestatsiyadan o'tkazish talablarini;
- nevrologiya shifokorini oliy tibbiy oliygohlarda tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish o'quv dasturlarini unifikatsiyalash O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimida - nevrologiya shifokorini tayyorlanish sifatini oshishi va ushbu jarayonda mahsuliyat ortib borishiga zamin yaratadi;
- “qayta aloqa” mexanizmlarini amalga oshirishda klinik laborator diagnostika shifokorining amaliy faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish.

1.3. Ushbu malakaviy tavsifnoma quyidagilar uchun mo'ljallangan:

- tibbiy oliygohlar va ularning filiallari;
- sog'liqni saqlashni boshqarmalari;
- ushbu mutaxassis mehnatidan foydalanuvchi vazirliklar, boshqarmalar, muassasalar va tashkilotlar;
- sog'liqni saqlash maxalliy boshqarmalari;
- davolash ishi muassasalari (qishloq vrachlik punktlari, oilaviy poliklinikalar, ko'p tarmoqli markaziy poliklinika, shahar, viloyat, respublika davolash-profilaktika muassasalari, ona va bolalikni himoya qilish tashkilotlari, sanator-kurort tashkilotlari, Respublika Ilmiy-ixtisoslashgan markazlari) laboratoriyalari;
- tibbiy assotsiatsiyalar.

1.4. Ushbu nevrologiya shifokori malakaviy tavsifnomasi quyidagi hollarda qo'llaniladi:

- o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqishda, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashda, ushbu yo'nalish bo'yicha mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni bashorat qilishda;
- kasbiy faoliyatni tanlash, joylashtirish, qayta tayyorlash va malaka oshirishni takomillashtirishda;
- Nevrologiya yo'nalishi bo'yicha magistrnlarni yakuniy attestatsiyadan o'tkazish uchun Davlat imtihon komissiyasining maqsad va vazifalarini aniqlashda;
- oliy tahlim muassasalarida xamda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash institutlarida tegishli fanlar bo'yicha o'quv rejalari, o'quv dasturlari va ishchi dasturlarni ishlab chiqishda;
- nevrologiya shifokorining kasbiy faoliyatini baholash va nazorat qilib borishda.

1.5. Nevrologiya shifokori professional tasdiqlanishi va faoliyat shartlari

Nevrologiya shifokori – keng doiradagi malakali mutaxassis hisoblanadi va aholining kasalliklarini tashxislash, oldini olish chora-tadbirlarini olib borish uchun yetarli nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi talab etiladi.

Nevrologiya shifokori aholining sog‘liqni saqlash sohasida o‘z professional faoliyatini Sog‘liqni Saqlash vazirligining tibbiy-profilaktika muassasalarining tegishli yo‘nalish bo‘g‘inlarida olib boradi:

- qishloq vrachlik punktlari, qishloq oilaviy poliklinikalari, shahar oilaviy poliklinikalari, ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalari, kasalxonalar, tibbiy markazlar va davolash muassasalarining laboratoriyalarida;
- oliy tibbiy mahlumotga ega bo‘lgan mutaxassislar faoliyat yuritishi lozim bo‘lgan sog‘liqni saqlash tizimining tegishli nomlanish asosida tashkilot va muassasalarida;
- sog‘liqni saqlash tashkilotlari, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida, tegishli nomlanishda ko‘zda tutilgan oliy tibbiy mahlumotga ega mutaxassislar egallashi mumkin lavozimlarda.

2. NEVROLOGIYA SHIFOKORIGA BO‘LGAN MALAKA TALABLARI

2.1. Nevrologiya bilimlari:

- Sog‘liqni saqlash sohasida Davlat siyosati va uning amalga oshirilishida barcha boshqaruv organlarining mashuliyati;
- O‘zR tibbiyot sohasining rivojlanish strategiyasi va boshqaruv tuzilmasi (kontse‘tsiya, tamoyillar, asosiy yo‘nalishlari);
- Sog‘liqni saqlash tizimi va ularda olib borilayotgan islohotlar;
- Sog‘liqni saqlashni rivojlantirishning asosiy siyosiy tamoyillari, standartlari, istiqbollari;
- O‘zbekiston Respublikasida nevrologiya xizmati tashkillashtirishni umumiy masalalari, Shifoxona va tuman subfiliallari faoliyati, sog‘liqni saqlashni birlamchi bo‘g‘inida katta yoshlilar va bolalarga tez va shoshilinch yordam xizmatini tashkillashtirish;
- nevrologiya xizmatini tashkillashtirish asoslari, uning faoliyatini, nevrologiya xodimlarining xuquq va majburiyatlarini, xizmatidagi kasalliklar turlarini belgilab beruvchi asosiy hujjatlar;
- tibbiyotning zamonaviy muammolari va rivojlanishining magistral yo‘nalishlari, ichki ahzolar kasalliklari diagnostikasi va davolashda yangi texnologiyalari;



– tibbiyotning shoshilinch xolatlari va kasalliklarining epidemiologik ma'lumotlari, etiologik va xavf omillarining tahsiri, patogenezining zamonaviy nazariyalari, tasniflari, diagnostikaning, shu jumladan erta diagnostikaning zamonaviy usullari, turli bosqichlarda davolash sxemalari, birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi, O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash organlarining shoshilinch tibbiy yordam soxasi va xizmatiga tegishli buyruq va normativ hujjatlari;

– tibbiyotning shoshilinch xolatlari va kasalliklarini davolash jarayonida kompyuter texnologiyalarining o'rni, asosiy elementlari, Internet vositalari, axborotlar qidirish, ma'lumotlarni saqlash haqida;

– operatsion tizimlar, elektron pochta, konferentsiyalar va taqdimotlarni tashkillashtirish.

– Vrachlik amaliyotida «komanda» bo'lib ishlash tamoyillari;

– tibbiyotning shoshilinch xolatlari va kasalliklarining zamonaviy laborator-instrumental va funktsional tekshirish usullari;

– tibbiyotning shoshilinch xolatlari va kasalliklarining epidemiologiyasi, etiologik va tahdid omillari, patogenezining zamonaviy teoriyasi, tasnifi, kechishining klinik variantlari, davolashning har xil bosqichlarida differentsiyalangan kompleks terapiya, asoratlarini davolash, birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi;

3 NEVROLOGIYA SHIFOKORI TOMONIDAN OLIB BORILADIGAN DIAGNOSTIKA VA 'ROFILAKTIKA ISHLARI

Nevrologiya shifokori faoliyatining asosiy yo'nalishi sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'imida profilaktika ishlarini olib borish, kasalxona, klinika, tibbiy markazlar qabul bo'limlari va bo'limlarida profilaktika ishlarini olib borish, xususiy tibbiyot muassasalarida laborator xizmatlarni tashkil qilish va amalga oshirish, aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish, tashxislash – profilaktika faoliyatida ilg'or, zamonaviy laboratoriya usullarini joriy etish, profilaktik chora tadbirlarni tashkillashtirish bo'yicha to'liq hajmdagi zaruriy ko'nikmalarga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassis sifatida mustaqil amaliy faoliyatni amalga oshirish xisoblanadi.

Quyida davolash ishi muassasalari (qishloq vrachlik punktlari, oilaviy poliklinikalar, ko'p tarmoqli markaziy poliklinika, shahar, viloyat, respublika davolash-profilaktika muassasalari, ona va bolalikni himoya qilish tashkilotlari, sanator-kurort tashkilotlari, Respublika Ilmiy-ixtisoslashgan markazlari) nevrologiya shifokori funktsional vazifalari keltirilgan:


- Aholining tibbiy ongini oshirish;
- Sog'lom turmush tarzi targ'iboti;



5. Aholini ximoya qilishni tashkillashtirish, chora-tadbirlarni amalga oshirish;
6. Axoli sog'ligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qo'llagan xolda yig'ish va tibbiy statistik taxlil qilish;
7. Bemorlarda patologik xolatlar, kasallik simptomlari, sindromlarini aniqlash va kasalliklar va sog'liq bilan bog'liq muammolar Xalqaro statistik klassifikatsiyasiga asoslangan xolda kasallik nozologik shaklini aniqlashga tayyorgarlik;
8. Diagnostik klinik-laborator tekshirish usullarini qo'llash va ularning natijalarini interpretatsiya qilish;
9. Axoli, bemorlar va ularning oila ahzolarida o'zi va atrofdagilarning sog'ligini saqlash va mustaxkamlashga qaratilgan motivatsiyaga tayyorgarlik;
10. Tibbiy muassasalar va ularning struktur tuzilmalarida fuqarolar sog'ligini saqlashni tashkillashtirish va boshqarish tamoyillarini qo'llash;
11. Asosiy tibbiy statistik ko'rsatkichlarni qo'llagan xolda tibbiy yordam ko'rsatish sifatiga baxo berishga tayyorgarlik;
13. Kollektivni boshqarish, ijtimoiy, etnik, konfessional va madaniy farqlarni tolerant qabul qilish.

Nevrologiya shifokorini bilishi va bajara olishi kerak bo'ladigan amaliy ko'nikmalari:

- nevrologik kabinetni (bulimni) jixozlanishi;
- nevrologik asobob-uskunalarini bilish va ishlata olish;
- MAT va 'ATning 'atologiyalarining nozologik shakllari va ularning belgilanishi
- nevrologik kasalliklar natijasida nogironlik guruxini aniklash va sabablarini bilish, ishga loyakatligini aniklash;
- sud-tibbiyot eks'ertizasi (tushuncha)
- turli xil MAT va PAT KA salliklari bor bemorlarni dispanserizatsiyasi uslubini kullash;
- tibbiyot xujjatlarini tugri olib borish;
- bemorlarni reabilitatsiyasi usullarini bilish;
- bosh miya, orqa miya va periferik nersv sistemasining qon tomir kasalliklari *haqida tasavvurga ega bo'lishi*;
- nevrologik tekshirishlar o'tkazishni;
- markaziy va periferik asab tizimini anatomo-funksional xususiyatlari: asab tizimini ontogenez va filogenezi, asab hujayrasini morfologiyasi, periferik nervning tuzilishi, orqa miyani morfofunksional xususiyati, orqa miya zararlanish sindromlari, bosh miya ustuni morfofunksional xususiyati, zararlanish sindromlari (ustunni al'ternirlashgan sindromlari), tuzilishi, funksional xususiyatlari, bosh miya



katta yarim sharlar po'stlog'ini tsitoarxitektonikasi (Brodman bo'yicha chiziqlar, oliy miya funktsiyalarining joylashishi), orqa va bosh miya qobiklarini tuzilishi va funktsional xarakteristikasi, markaziy asab tizimini angioarxitektonikasi.

- xarakat sferasi va uning zararlanishi: 'iramida tutami yo'lining morfofunktsional tuzilishi, tekshirish usullari va zararlanish sindromlari, ekstrapiramidal tutam yo'lining morfofunktsional xususiyatlari, tekshirish usullari va zararlanish sindromlari, miyachaning tuzilishi va funktsional xususiyatlari, tekshirish usullari va zararlanish sindromlari.

- sezgi sferasi va uning zararlanishi: periferik retseptorlar tuzilishi va funktsiyasi, og'rik va temperatura sezgi yo'llari, tekshirish usullari va zararlanish sindromlari, chuqur-taktil sezgi yo'llari, tekshirish usullari va zararlanish sindromlari, sezgi buzilish turi va semiotikasi, reflekslar va ularning buzilishi, fiziologik reflekslar, reflektor halqa, reflekslar klassifikatsiyasi, tekshirish usullari va ularning diagnostika uchun ahamiyati, patologik reflekslar.

- bosh miya nervlari: anotomo-fiziologik xususiyati xidlov, ko'ruv, ko'z xarakatlantiruvchi, uch shoxli, yuz, daxliz-chiganoq, tilyutqun, adashgan, qo'shimcha, til osti nervlarni zararlanish sim'tomlari, miya ustini zararlanishida algpternirlashgan sindromlar, bul'bar va psevdobulgar sindromlar.

- oliy miya funktsiyalari va ularning buzilishi.

- vegetativ nerv tizimi va zararlanish sindromlari: segmentar va segment usti qismlarining tuzilishi va funktsiyasi, zararlanish sim'tomlari, sim'atik va parasim'atik qismlarning funktsional xususiyatlari, zararlanish sim'tomlari, tekshirish usullari

- klinik nevrologiyada funktsional tekshirish usullari:

elektroentsefalografiya, elektroneyromiografiya, exoentsefalosko'iya, reoentsefalografiya, ulg'ratovush dopplerografiya, rentgendiagnostika, kompyuter tomografiyasi,

yadroviy magnit rezonans tomografiya, likvorodiagnostika,

braxiotsefal tomirlarning ulg'ratovush dopplerografiyasi,

pozitron-emission tomografiya usulini **bilishi va ulardan foydalana olishi;**

- maxalliy anestetik blokadalar texnikasini o'zlashtirish;

- kasallarni kliniko-nevrologik tekshirish va anamnez yig'ishni yuqori drajada o'tkazish, turli nevrologik kasalliklarda bemorlarni yuksak darajada olib borish va kuzatish.

- tekshiruv hajmini aniqlash bilan dastlabki tashhisni shakllantirish, EEGni mustakil o'tkazish, EEGning mehyoriy va patologik ko'rsatkichlari va ularga klinikada baxo berish, ENMG: preferik asab tizimining xamda asab mushak apparati kasalliklariga ENMG axamiyati, ExoES va uning bosh miya kasalliklarini



tashxis qilishdagi ahamiyati, REGning mehyoridagi va patologiyadagi ko'rsatkichlari, miyaning qon tomir kasalliklarida REG, rentgen tashxisi va maraziy xamda pereferik asab tizimining kasalliklarini tashxis qilishdagi uning roli, KT, YaMR, angiografiya, mielografiya, ventrikulografiya va b.q.

- reanimatsion choralarni o'tkazish (lyumbal punktsiya, markaziy venalarni punktsiyasi va kateterizatsiyasi)

- zarur davo-dagnostik muolajalarni tanlash, reanimatsion choralarni ishlab chiqish va o'tkazish.

- zarur tibbiy hujjatlarni olib borish (ambulator karta, kasallik tarixi) quyidagi kasallik va xolatlarda: bosh va orqa miya qon tomir kasalliklarida, bosh miya pardalari yallig'lanish kasalliklarida, mono- va polineyropatiya, asab tizimining kasalliklarida, tarqoq skleroz, yon amiotrofik skleroz, asab tizimining nasliy kasalliklarida, asab tizimining shikastlanishida, nerv sistemasining 'arazitar kasalliklarida *tajriba va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

1. Koagulometrda yo'riqnomasiga muvofiq ishlash.

6. NEVROLOGIYA SHIFOKORLARINING UZLUKSIZ KASBIY TAYYORGARLIGI VA ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH

Nevrologiya shifokori o'z kasbiy bilim ko'nikma va bilimlarini o'zluksiz mustaqil o'qish yuli bilan takomillashtirib borishi lozim. Nevrologiya shifokorlari oliy tibbiy o'quv muassasalarda, malaka oshirish institutlari tsikllarida sertifikat va/yoki guvohnoma olib o'qishlari mumkin.

Nevrologiya shifokori sog'likni saqlash boshqarmalari yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan tuman, viloyat, Respublika bosqichlarida tashkil etilgan qisqa muddatli o'quv kurslari va seminarlarda qatnashib, ular yakunida sertifikat, attestat, guvohnomalar olib ishtirok etishi lozim.

Ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini oshirish maqsadida har bir Klinik laborator diagnostika shifokori har yili audit o'tkazadi.

Muhim shifokor hududi bo'yicha loyixa tuzib, uning natijalari davolash kengashida muhokama kilinadi.

Har bir Nevrologiya shifokori aholi sog'ligini saqlash va tibiy yordam ko'rsatish borasidagi o'tkazilgan ishlar bo'yicha har yili hisobot taqdim etishga majbur.

Har 5 yilda Nevrologiya shifokori va 'edagog tegishli vazirlik tomonidan belgilangan xajm va davrda o'z malakasini tasdiqlash uchun malakaviy attestatsion imtihon topshirishga majbur.



Malaka tavsifnomasini tuzishda quyidagi hujjatlar bilan ishlangan:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining “Tibbiyot va farmatsevtika oliy tahlim muassasalarida tahlim jarayonini tashkil etish bo‘yicha meyoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2019 yil 12 avgustdagi 209 sonli buyrug‘i.
3. 910000 – Sog‘liqni saqlash tahlim sohasining davlat tahlim standarti.
4. Rossiya Federatsiyasi vrach-tera‘evt kasbiy standarti.
5. 70910209-Nevrologiya magistratura mutaxassisligi malaka talablari.

